

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

2013-yil

4-mart

N:9

(66914)

Tong Yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BAHAR

Bahor dazakhisi,
Bodom gulladi,
Qishlog'imizda.

Shoshqin suvlarga,
Mahliyo bo'ldi,
Mizishkoz dehqon.

Yuztim madhini,
Bulbul kuyladi,
Gulbog'imizda.

Biz-bizin qutlar,
Keksa-yosh bu kun,
Bazi baxtiyoʻz.

Gulga buzkanib,
Shodlikka to'ldi,
Haz biz xonadon.

Dilga jo etdi,
Bahor shukuhin,
Men sevgan diyoz.

Juma USMONOV

IMKONLAR FASLI

Bolalik inson umrining eng baxtiyor, betakror damlari sanaladi. Uning beg'ubor xotiralarini yodga olganda, qalbimiz hayajondan entikib, yuzimizga beixtiyor tabassum yugurishi ham shundan. Bu xotiralarning yanada zavqli bo'lishi esa har bir o'g'il-qizning o'z qo'lida.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 5-«D» sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Madinabonu Saidazimovaning keyinchalik eslaganda, qalbi zavqqa to'ladigan maroqli bolalik xotiralari ko'p bo'lishiga shubhamiz yo'q.

Davomi 4-betda

BUGUN SHODLANMOQNING AYNI ONIDUR

Salom, mening aziz dugonalarim, Azizim, lobarim, chevarim qizlar. Ey, toza qalbinning oshnolari, Kuylarim ilhomi, sevarim qizlar.

Har yili onajonlarimiz, opa-singillarimiz bayrami arafasida sevimli shoiramiz Zulfiyaning ushbu satrlari yodimga tushib, beixtiyor tilimda aylanaveradi. Chunki aziz qizlarimizga bunday tavsiflardan-da ortiqroq ta'rif berish dushvor.

Ne baxtki, HAYOT otlig' mo'jizaviy olamning aziz mehmonlarimiz! Nomimiz, sha'nimizning qadrlanmog'i esa ming karra sharaf!

Anglaymizki, biz ko'plar havasmand insonlarmiz. Chunki bizda AYOL nomi ulug'lanadi, dunyodagi eng muqaddas narsalarga mengzaladi. Xotin-qizlarimizning qadri baland, jamiyatdagi o'rni beqiyos.

Bizda «ONA» so'zi yolg'iz qo'llanilmaydi, munis, mushfiq, mehribon, beminnatim kabi iboralarni qo'shib atasak-da, ko'nglimiz to'lmaydi. Chunki ona mehrining o'lchovi, qiyosi, chek chegarasi yo'q. Bu tushunchaning millati ham bo'lmaydi. Onaxonlarimiz timsolida qad rostlagan haykallar ularga ko'rsatilayotgan e'zoz-u ehtiromning yana bir namunasidir. «Ona» so'zini «Vatan» so'ziga ham qo'shib aytamiz. Shunday atasak, ko'nglimiz to'ladi. Vatanning suvrati ko'z o'ngimizda yanada aniqroq, yorqinroq namoyon bo'ladi, mehrini qalbizning tub-tubidan his qilgandek bo'lamiz. Zero,

Bu yorug' dunyoda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda ona degan nom!

Jonajon diyorumizda qizlarimizga berilayotgan e'tibordan ham ko'nglimiz tog'lar barobar bo'ylaydi. Ular neniki orzu qilishmasin, ijobatidan umid bor. Bilimi, ilmi, san'ati, salohiyati tufayli dunyo kezishganida, ortlarida ularni intiq kutguvchi, sog'inguvchi, ular uchun qayg'urguvchi ona yurtlari, ota makonlari bor. Buni his qilmoq naqadar buyuk baxt! Qizlarimizni sportga jalb qilish, shu orqali ular, demakki, millat davomchilari salomatligini mustahkamlashdek ezgu maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlar ham maqtansa arzigulik. Fan, ta'lim, sport, adabiyot, madaniyat, san'at yo'nalishlaridagi yutuqlari, muvaffaqiyatlari uchun iqtidorli, intiluvchan, izlanuvchan qizlarimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga loyiq ko'riladilar. Aytinch, bunday e'zoz-u ehtirom, izzat-u ikrom yana qay bir yurtda bor?!

Shunday ekan, biz dunyodagi eng baxtiyor, baxti bor insonlarmiz, deyshiga haqlimiz.



Bugun shodlanmoqning ayni onidir, mo'tabar onaxonlar-u aziz opa-singillarimizni ulug'lovchi ayyom - 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida turibmiz. Bu kun barcha ezgu tilaklar ularga bo'lsin! Qablari shodlikka, quvonchga to'lsin!

Feruza JALILOVA

Tadbir

MAKTABDA BIR KUN

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 150-maktabda «Orasta qizlar» tanlovi bo'lib o'tdi. Tadbirda biz ham qatnashdik. Qizlarning chiqishlarini zavq bilan tomosha qilayotgan maktab direktori Komila opa Oripovani bayram bilan tabriklab, bilim maskani haqida so'zlab berishlarini iltimos qildik:

– Maktabimizda 726 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularga 41 nafar tajribali o'qituvchilar saboq berishadi. Arab tiliga ixtisoslashgan ilm maskanimizning yutuqlari talaygina. Ijodkor o'quvchilarimizga alohida e'tibor qaratamiz. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nigora Qodirova maktabdagi ijodkor o'quvchilarning she'rlarini to'plab, mo'jazgina kitobcha chiqarish harakatidalar... Opaga sharaflil ishlarida muvaffaqiyatlar tilab, o'quvchilarga yuzlandik:

Iroda MIRZAHMEDOVA, 2-«V» sinf o'quvchisi:

– Men «Barkamol avlod» markazi qoshidagi «Ko'zmunchoq» raqs guruhiga qatnayman. Guruh rahbarimiz Sanobar opa Majidova bizga juda ko'p raqslarni sahnalashtirishimizga yordam beradilar. Yurtimizda bo'lib o'tgan «IV Xalqaro xoreografiya va sport plastikasi» tanlovida «Pilla» raqsimiz bilan qatnashib, 2-o'ringa sazovor bo'ldik.

Mahmudjon MUHAMMADJONOV, 5-«B» sinf o'quvchisi:

– Men sportning taekvando va suzish turlari bilan shug'ullanaman. Hozirda taekvando bo'yicha murabbiyim Aziz aka Sultonov bilan bo'lajak musobaqalarga qizg'in tayyorgarlik ko'ryapmiz.



Ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan «Har birimiz bittadan ko'chat ekaylik!» loyihasida faol ishtirok etishga kirishib ketgan mazkur bilim dargohi o'quvchilari:

– Ekkan ko'chatlarimiz maktabimizga ko'rk bag'ishlaydi. Soyasida dam olamiz, hosilidan bahramand bo'lamiz, – deyishyapti. Bu serg'ayrat o'g'il-qizlarga,

ularning mehdariyo ustozlariga kelgusi ishlarida omad tilab, xayrlashdik.

Ozoda TURSUNBOYEVA. X.HAMIDULLAYEV olgan suratlar

Mohinur ABDUMURODOVA, 8-«B» sinf o'quvchisi: – Maktabda chop etiladigan «Guldasta» she'rlar to'plamida ilk she'rim chop etildi. Bu menga yanada ilhom bag'ishladi.

Abdulloh MIRMAHSUMOV, 1-«V» sinf o'quvchisi: – Men rasm chizishga qiziqaman. Sog'lom bo'lish uchun sportning kikkoksing turi bilan ham shug'ullanaman.

Yaxshi kitob nonga o'xshaydi

MO'JIZAVIY OLAM

Kitob! Bu muqaddas so'zni eshitganimizda, xayolimizga ajib o'ylar keladi. Nazarimizda, kitob bir bog' bo'lsa, uning yozuvlari anvoyi gullardek tuyuladi. Biz bu bog'ni umr bo'yi kezsak ham adog'iga yetolmaymiz.

Yaqinda maktabimizda kutubxona mudiri Shahloja Jalolova rahbarligida «Kitob – mo'jizaviy olam» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda biz – 8-«A» va 8-«B» sinf o'quvchilari olgan bilimlarimizni namoyish etib, o'zaro bellashdik. Ma'naviyat bulog'i – kitobga oid bukletlar tayyorladik.

«Kitob – kuchli qurol» mavzuida ijro etilgan sahna ko'rinishi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Beshta shart asosida bellashib, 23 – 24,5 ball hisobida bizning sinfimiz g'olib deb e'lon qilindi. Maktab direktorining ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Z. Rahimova barcha qatnashchilarni alohida tabrikladi.

Durdona JA'FAROVA,
Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi
30-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi



Bizda yaxshi bir an'ana bor: mahallamiz bolalari bilan birgalikda tez-tez «Sharq ziyokori» kitob do'koniga borib turamiz. U yerda o'zimizni xuddi kitoblar olamiga tushib qolgandek his etamiz. Mavzusi, bezaklari bilan kishini o'ziga jalb etuvchi katta-kichik kitoblarni varaqlab, ko'zimiz quv naydi.

«SHARQ ZIYOKORI» ZIYOSI

Yaqinda do'kondan «Qiziqarli matematika», «Sariq devni minib», «Shaytonvachchanning nayranglari», «O'n besh yoshli kapitan» nomli kitoblarni xarid qildim. Hozir ularni oila a'zolarimiz bilan mazza qilib o'qiyapmiz. Bu kitoblar faqat

meniki emas, balki uka va singillarimniki hamdir. Chunki biz kitob do'konida o'zaro maslahatlashib, kitob xarid qilamiz va ularni almashib o'qishni tashkil etganmiz. Mutolaadan so'ng esa oila a'zolarimiz, tengdoshlarimiz bilan o'qigan kitoblarimiz yuzasidan munozara yuritamiz.

Bir so'z bilan aytganda, «Sharq ziyokori» ziyosidan dillarimiz nurafshon bo'lmoqda. Zero, kitob mutolaasi insonni komillikka yetaklaydi.

Marat PAUKAROV,
poytaxtdagi 49-umumta'lim maktabi o'quvchisi,
SOS-bolalar mahallasi



Bilim maskanimizda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan «Kamalak» malikasi» ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

KAMOLA – «KAMALAK» MALIKASI

Maktab xotin-qizlar qo'mitasi raisi Dilbar Pardayeva, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Mavluda O'rinova, «Kamolot» YOIH yetakchisi Mamlakat Nurmatova singari jonkuyar ustozlar tashabbusi bilan uyushtirilgan tanlovda 5-7-sinflarning chaqqon va zukko qizlari o'zaro bellashdilar. Ishtirokchilarning «Tanishuv», «Kamalak» savoli, «Erkin mavzu», «Salat tayyorlash» shartlari asosidagi o'ziga xos chiqishlariga hay'at a'zolari ham qoyil qolishdi.

Ko'rik-tanlov natijasiga ko'ra, 5-«A» sinf o'quvchisi Kamola Qarshiboyeva bir ovozdin «Kamalak» malikasi» deya tan olindi. 7-«V» sinf o'quvchilari Hilola Saidova, Lobar Orziqulova, Muxlisa Erkinova va Laylo Suvonovaga «Kamalak» bilimdonlari» nominatsiyasida g'oliblik nasib etdi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilarga maktab ma'muriyatining «Faxriy yorliq»lari hamda esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Maftuna KENJAYEVA,
Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

YURT KORIGA YARAYMAN

Men Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida istiqomat qilaman. Bu yerning go'zal tabiatini bir bor ko'rsangiz, shifobaxsh buloqlaridan qonib-qonib suv ichsangiz, mehnatsevar, mehmondo'st odamlari bilan gurunglashsangiz, baxshilarining xonishini tinglasangiz, bu go'shada yana mehmon bo'lgingiz kelaveradi. O'z bag'rida yurt koriga yaraydigan yoshlarni voyaga yetkazayotgan ushbu maskan Vatan ichra mo'jaz Vatanim mening... Prezidentimizning «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» degan so'zlari bugun biz yoshlarning shiorimizga aylangan. Ayni paytda



yurtimizning eng chekka qishloqlarida ham obodonlashtirish ishlari avj olgan, poytaxtdagidan sira qolishmaydigan uyjoylar barpo etilmoqda. Shu tariqa turmushimiz farovon va obod bo'lib bormoqda. Biz – yosh avlod kamolotiga ham katta e'tibor qaratilaypti, bilimimiz, intellektual salohiyatimizni namoyon etishimiz uchun imkoniyatlar yaratilaypti.

Jumladan, men «Yangi avlod – 2012» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida qatnashdim, she'rlarim, maqolalarim gazeta va jurnallarda bosilyapti. Eng quvonarlisi, «Nihol» nomli she'riy to'plamimning chop etilishi menga qanot bag'ishladi.

Kelgusida bundan-da yuksak marra-larni zabt etishga harakat qilaman.

To'liqjon HAFIZOV,
34-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

NIHOLLARIMIZ KURTAK OCHDI

Tabiat! O'zida tengsiz go'zallikni jo etgan poyonsiz borliq. Yer-u osmon, o'simliklar, gullar, daraxtlar, jonivorlar, hatto odamzod ham uning bir bo'lagidir.

U to'rt unsurdan: suv, olov, yer va havodan iborat.

Suv – barcha jonzot va o'simliklar uchun tiriklik manbai, olovning taftidan barcha bahramand bo'ladi.

Havo – usiz hayot yo'q. Yer – jamiki jonzotlarga o'z bag'ridan joy bergan, barchamiz uchun qadriyatga ega bo'lgan oshiyon.

Maktabimizdagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zolarining asosiy maqsadi ana shu to'rt unsurga to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylashni o'rganish, boshqalarga ham o'rgatishdan iborat. Maktabimiz bog'ida turli o'simliklar o'stiramiz. O'tgan yili maktab hovlisiga mevali daraxtlar, atirgul ko'chatlarini o'tqazgan edik. Bu yil nihollarimizning kurtak ochayotganini, atirgullarimiz nish urayotganini ko'rib, barchamiz birdek quvondik. Mehnatimiz samarasini ko'rgach, to'garakdagi ishlarimizni yanada jonlantirib yubordik.



«Onajonim tabiat» tanloviga

Tabiatni sevgan inson hech qachon unga zarar yetkazmaydi. Chunki bu qanday oqibatlariga olib kelishi barchaga ayon. Shunday ekan, keling, har birimiz tabiatga do'st bo'laylik!

Charos RAHIMQULOVA,
Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi
54-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

QIZLAR GULDASTASI

Qizlarimizni nafis, muattar, xushbo'y gullarga, chechaklarga qiyoslaymiz. Har gulning o'z atri bo'lgani kabi qizlarimizning ham har birlari turfa olam. Orzu-havaslarini, qiziqish, intilishlari bo'lakcha. Turlicha bo'lsa-da, qalblarida ezgu-niyatlar, maqsadlar bo'lgani qanday yaxshi!

Bayram arafasida ushbu sahifamiz orqali Sizni ana shunday iqtidorli, izlanuvchan qizlarimiz bilan tanishtirishni niyat qildik, turfa gullardan qizlar guldastasi saraladik.

BAYRAMINGIZ MUBORAK, AZIZ QIZLARJON!

(Boshi 1-betda)

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanida joylashgan 56-umumta'lim maktabi qoshidagi «Orasta qizlar» guruhi a'zolari – Bahoroy kabi kundan kunga yangi qirralarini ochib borayotgan dugonalarimning qo'lga kiritgan yutuqlari haqida yozgim keldi...

Guruh a'zolari «Orasta qizlar» tanlovining tuman bosqichida birinchi, viloyatda to'rtinchi o'rinni egallashdi. Guruh sardori Umida Mutalova o'tgan yili «Prezident asarlari bilimdoni» tanlovida g'olib bo'ldi. Uning dugonalari ham har tomonlama iqtidorli, izlanuvchan qizlarimizdan. Madina Jumanazarova – maktab «hamshirasi», Sitora – raqqosa, Sevinch – havaskor shoira, Umida – rassom.

Har sohani uddalaydigan, maktabning jamoat ishlarida, tadbirlarida faol bu qizlarning suratlariga boqsangiz, qolganini kulib turgan ko'zlaridan uqib olasiz!

Muxlisa XOLMATOVA,

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

BAHORROYGA



O'XSHAYDI ULAR

BU KITOBNI O'QING!

Piskentlik yosh qalamkash Dilsora Abdusattorovani ijodi orqali yaxshi taniyman. «Tong yulduzi» gazetasida dolzarb mavzudagi ko'plab maqolalarini, hikoyalarini o'qib, ta'sirlanganman. Ketma-ket ikki yil – 2010-, 2011-yillarda «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining g'olibi tanishtirishning hojati bo'lmas kerak, deb o'ylayman. Uning ko'plab hikoya va she'rlarini «Turkiston», «Sog'lom avlod» gazetalari, «Gulxan», «Yoshlik» jurnallari sahifalarida ham o'qib borayotgandirsiz. 2011-yilda chop etilgan «Ezgulik» nomli ilk kitobchasi ham qo'lingizga yetib borganidir.

Yaqinda uning Vatan, ona tabiat, tabarruk insonlar, insoniy tuyg'ular, kechinmalar haqidagi hikoyalari jamlangan «Nigohimdagi odamlar» nomli ikkinchi kitobchasi bosmadan chiqdi. Ijod, izlanish, zahmat, mehnatdan iborat ADABIYOT deb atalmish ulug' yo'lni tanlab, qalamini charxlab borayotgan bu qizimiz yoshi iqtidor egasi sifatida taniqli bolalar adiblarining nazariga ham tushdi. Bu esa zimmasiga mas'uliyat yuklashini bilgan holda yanada ko'proq o'qishga, uqishga, ijod qilishga intilyapti.

Dilsoraga ijodiy parvozlar tilab, kitobchaga kiritilgan «Saboq» nomli hikoyasidan parcha keltiramiz:
«Nodirjon bilan sinfdoshlari gaplashmay qo'yishdi. Chunki uning ko'pchilikka yoqmaydigan, to'g'rirog'i, xudbinligiga butun sinf shunday «chora» qo'lladi. Xo'sh, keyin nima bo'ldi, deysizmi?»

Gap shundaki, Nodirjon yaxshi o'qisa-da, boshqa sinfdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'lolmaydi. Bilag'onlik va xudbinlik uning doimiy odati. Masalan, tanaffus paytida oshxonada boshqalarni turtib-surtib navbatidan oldin ovqat oladi. Hammaga laqab qo'yadi. O'zlashtirishga qiyalayotgan sinfdoshlariga yordam berishni xayoliga ham keltirmaydi. «Men» deyshini yaxshi ko'radi...»

Xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ldi, deysizmi? A'lochiligi, ustozlarining e'tibori, maqtovi tufayli «manmanlik» kasaliga chalingan Nodirjonga nisbatan sinfdoshlarining qo'llagan chorasini qanday samara bergani bilan qiziqsangiz, ushbu kitobchani o'qing.

Kitobdagi qaysi hikoya nimasi bilan sizga ma'qul bo'ldi? Nodirjonni biror sinfdoshingiz yoki maktabdoshingizga o'xshatib yubormayapsizmi?

O'zingiz o'qigan qay bir kitobni kitobxon tengdoshlaringizga ham o'qishni maslahat berardingiz?..

Shular haqida «Bu kitobni o'qing!» rukniga, albatta, yozib yuboring.

Dilafroz XALILOVA



ZUBAYDA olgan surat

IMKONLAR FASLI

Besh yoshidan qo'shiq kuylab, «Tomosha» bolalar teatr-studiyasida kamol topayotgan bu qizaloq ayni damlarini keng imkonlar fasli deb biladi, uning har kunidan unumli foydalanishga intiladi. 2-Musiqqa maktabining fortepiano sinfidagi saboq oladi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasida vokal yo'nalishi bo'yicha shug'ullanadi. 10 yoshida «Yangi avlod – 2011» respublika bolalar ijodiyoti festivalida «Men baxtli qizman» nomli qo'shiq'i bilan qatnashib, g'olib bo'ldi. 11 yoshida «Artek»da bo'lib o'tgan yosh ijrochilarning «Yangi yil qo'shiqlari – 2012» xalqaro tanlovi laureati bo'ldi. Moskvada bo'lib o'tgan «Yangi to'lqin – 2013» loyihasida rossiyalik taniqli opera qo'shiqchisi Aida bilan «Traviata» ijro etdi.

Kuni kecha opera uslubidagi qo'shiqlari bilan ko'plab muxlislarni lol qoldirgan jajji Madinadan kelajak orzulari haqida so'ragani-

mizda, u hali biror to'xtamga kelmaganini aytdi:

– Balki qo'shiqchi bo'larman, bu kasb menga juda yoqadi. Yana tikish-bichishga qiziqaman. Bu insonning sabr-bardoshini toblaydigan hunar deb bilaman. Kelajakda sahnaga kiyib chiqadigan liboslarimni o'z qo'llarim bilan tiksam, deymen. Hozircha ko'ylaklarimni tikuvchimiz Valya xola tikib beryapti. Buning uchun ulardan behad xursandman. Shuningdek, onajonimdan ham juda minnatdorman. Onam menga yuksak ishonch bildirib, har bir chiqishlarimdan avval, Madina, sen juda iqtidorli qizsan va albatta, muvaffaqiyatga erishasan, deya meni ruhlantirib yuboradilar. Bu esa o'zimga bo'lgan ishonchimni orttirib, menga qanot bag'ishlaydi...

Kelgusida taniqli estrada yulduzlari bilan birgalikda qo'shiq kuylashni, shuning barobarida hunar o'rganib, mohir tikuvchi bo'lishni niyat qilayotgan Madinabonuni yaqinlashib kelayotgan ayvom bilan tabriklab, o'zbek qizining jarangdor ovozi dunyo bo'ylab taralishiga tilakdosh bo'lib qoldik.

Tuhfaniso ORTIQOVA



MAQSAD SARI INTILINGI!

Bugun bir emas, hatto ikki-uchta chet tillarini o'rganayotgan tengdoshlaringiz haqida eshitib, o'qib, ularga havas qilayotgan bo'lsangiz, ajabmas! Bu havas esa Sizning ham o'z oldingizga ana shunday maqsadlar qo'yishga undayotganiga aminmiz. Zero, azaldan til bilgan insonning xalq orasida hurmati baland bo'lib, jamiyatdagi mavqeyi yuksalib borgan.

Bugun yurtimiz dunyoga yuz tutayotgan bir davrda chet tillarini o'rganish, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qay biringiz bilan suhbatlashmaylik, eng katta orzuingiz - yurtimiz ravnaqiga hissa ko'shish ekanini ta'kidlaysiz. Shunday ekan, Yurtboshimizning 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroridan ruhanib, ezgu maqsadingiz sari yanada dadilroq qadam qo'yayotgan bo'lsangiz, gazetamiz bu borada sizga ko'makdosh bo'la oladi, deb o'ylaymiz. Maktabda olayotgan bilimlaringizni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgan «Ingliz tilini o'rganamiz» ruknini kengaytirib, sahifa ko'rinishida tayyorladik. Unda turli topshiriq, topishmog'-u boshqotirmalar, kichik tarjimalar berib boriladi. Sahifamiz bilan tanishib, o'z taklif va mulohazalaringizni bizga yozib yuboring.



Which animal is this? Bu qaysi hayvon?

This animal is very big. It is 3 meter tall and weight 650 kilograms. It's got white fur. It eats seals and other animals. It lives in the Artic.



This animal is a bird. It builds a nest in a tree. It hunts at night. It flies very quietly, so other animals cannot hear it when it hunts. It eats insects, mice, little birds, and small rabbits.



This animal lives in Australia. It cannot walk or run, but it hops on its hind legs. It rests in the shade during the day, and comes out to eat in the later afternoon and at night when it's cooler. It eats grass. It can live four months without water. Mothers carry their babies in a little pocket, a so-called «pouch».



RIDDLES (Topishmoqlar)

This is a house
With one window in it.
Showing films
Nearly every minute.



It is running
Night and day.
But it never
Runs away.



It begins
Just where it ends?
And your lovely house
There stands.

This young foal
Looks nice and gay.
He eats
Neither oats nor hay.
Firmly grip
The handle-bar.
If you want
To travel far.



Nigora IKROMOVA,
Shayxontohur tumanidagi 13-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

The Theme: «There is», «There are» – bor.
Biz bu darsda «bor» so'zini ishlatilishini o'rganamiz. Bu so'z biror joyda biror narsaning bor yoki yo'qligini ifodalaydi.

Example: There is a book on the table.
Stol ustida kitob bor.

There are two apples on the plate.
Likopchada ikkita olmalar bor.

So'roq shaklida «Is» yoki «are» «there»ning oldiga o'tadi. Inkor shaklida esa «There is not» (isn't – qisqa) yoki ko'plikda «There are not» (aren't – qisqa) shakli ishlatiladi.

What is there in the room?
Xonada nima bor?



Exercise 1. Fill in: «there is or there are»

- a man in the room.
- two children in the garden.
- two cats under the tree.
- a dog under the table.
- two books on the table.
- a picture on the wall.
- two cars in the street.
- a bed in the bedroom.

Risolat ISMOILOVA

Boshlovchilar uchun

«GREAT BRITAIN»

Krossvord



- Bayrog'imizdagi mavjud rang.
- Uy hayvoni.
- A'lo baho.
- 2013-yil muchal bo'yicha...
- Jumadan keyin, yakshanbadan oldin.
- O'quv quroli.
- Fasl.
- Qirolchanning turmush o'rtog'i.
- Yer tagida oltin qoziq.
- Dadangizning dadasi.
- Hayvonlar shohi.
- Angliyaning poytaxti.

Tuzuvchi: D.AKBAROV,
Farg'ona viloyati,
Qo'qon shahridagi
26-umumta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi

Bahrom AKBAROV

Sumalaklar nayzalarga
Osilvoldi.

MITTI BOTIR

(Ertak-doston)

Buvam ajib bu ertakni
So'zlab bergan atayin.
Men ham uni to'lig'icha
Bugun sizga aytayin.
Ertak boshi juda qadim
Zamonlardan oshadi.
Eshitsangiz, hayratingiz,
Ham aqlingiz shoshadi.
Bobotog'ning yon bag'rida
Bu voqea bo'lgandi.
Ayoq qanday yengilganin
Cho'qqilar ham ko'rgandi.
Nima qildim gapni cho'zib
Ertagimni boshlayman.
Juda qadim Bobotog'ga
Nigohimni tashlayman.

Tog' bag'rini ko'rganda,
Quvonchlariga to'lar dil.
Bu yerda sovuq bo'lmas,
Bahor, yozdir muttasil.
O'sar, unar maysalar,
Yam-yashildir qir, dala.
Ko'zingiz quvnaib ketar
Ochilganda gul, lola.
Yillar shunday osuda
Va tinchgina o'tardi.
Bobotog'ning yon bag'ri
Gulga to'lib ketardi...

U vaqtlarda maysalar, dov-daraxtlar, hattoki qoyatoshlar ham odamlar singari bir-birlari bilan so'zlashardilar. Bu yam-yashil vodiya tun yarmigacha chechaklar aytayotgan turli xil sho'xchan qo'shiqlar tinmasdi. Lola, chuchmoma, binafshaning shirali qo'shiqlariga cho'qqilar yonboshidagi dov-daraxtlar ohista tebranib turishar, daraxtlar barglari shitirlab, chechaklarga jo'r bo'lishardi. Vodiya taralayotgan sho'x ohanglar uzoq-uzoqlarga yetib borar, gohida esa qoyatoshlarga urilib, mayingina aks-sado berardi. Qushlar ham bu makonni juda sevishar, ularning qo'shig'i o'zgacha shukuh bag'ishlab turardi. Faqat Bobotog' cho'qqisiga zulukday yopishib olgan Ayozgina bu holga chiday olmasdi. Uning yuzlari oppoq bo'lsa-da, ichi qop-qora edi. Uzoqdan yuzlari gezarib may-sazorga suqlanib qarar, bu makonni bosib olishni, maysalarni qul qilishni o'y-lardi. Shu sababli, turli hiylalar o'ylab topar, lekin ularning birortasi ham naf bermasdi.

Kunlarning birida Bobotog' cho'qqisida o'tirgan Ayoz xayoliga kelgan fikrdan quvonib ketdi. U osmonning bir chetidagi kichkina Qora Bulutni o'z yoniga chorladi-da, unga shunday dedi:

Qoyilman, Qora Bulut,
Osmonlarda uchasan.
Istasang, tog'lardagi
Cho'qqilarni quchasan.
Kimki bo'yin egmasa,
Yomg'irningni tashlaysan.
Oq bulut qarshi chiqsa,
Unga urush boshlaysan.
Yorib osmonni Chaqmoq,
Sening tarafing olar,
Ukang Momaqqaldiroq,
Zaminga dahshat solar.
Ammo hayron qoldim-da,
Maysalardan eshitib,

Gulira no ZOKIROVA chizgan rasm

Buni shamol aytgandi
Qulog'imga shipshitib.
Qo'rqarmishsan ulardan
Qor talashmas emishsan.
Kulsalar-da ustingdan
Parvo qilmas emishsan.
Maysalar-chi bu sabab,
Tik, g'o'ddayib yurarkan.
Sariqqamish-chi, kulib,
Salom bermay turarkan.
Qora Bulutning shu payt
G'azabi qaynab ketdi.
Guldurakning ovozi,
Yer-u osmonni tuidi.
Ko'kni birdan o'rab u,
Qovog'in solib oldi.
Sho'rlik yashil maysalar,
Yomg'ir ostida qoldi.
Oqshom chog'i izg'irin,
Maysalarga soldi chang.
Ko'm-ko'kkina maysalar
Holi birdan bo'ldi tang.
Uch kecha-yu uch kunduz,
Yomg'ir yog'di, tinmadi.
Qora Bulut maysalarga
Aslo rahm qilmadi.
Bu holdan faqat Ayoz
Xursand edi, shod edi.
Mana, endi bizga fursat
Nihoyat yetdi, dedi.
Topshiriq berdi darhol,
Ukasi Yaxmalakka.
Sen ham tayyor tur, dedi,
Inisi Sumalakka.
Bu tun borliq, zaminga
Asta yurish boshlaymiz.
Maysalarga shafqat qilmay,
Zumda yanchib tashlaymiz.

Yarim tunda Ayoz o'zining sodiq lashkarlari Yaxmalak, Sumalak, Bulduruq va Qirov bilan Bobotog' cho'qqisidan Maysazor tomon tushib keldi. Uch kecha-yu uch kunduz yog'gan yomg'irdan tinkasi qurigan maysalar izg'irinda diydirashib turishardi. Shu payt quyuq Tuman maysalar makonini egallab oldi. Bu Ayozning o'ylab qo'ygan hiylalaridan biri edi. Tuman shu darajada quyuq edi-ki, Ayozning lashkarlari bilan vodiya kirib kelayotgani sezilmasdi. Maysazorlar vodiysining chegara boshlig'i Yantoq ham juda charchagandi. Shunday bo'lsa-da, u sergak edi. Tumanlar orqasidagi oq

sharpalarni ko'rdi-yu, vodiya boshlig'i Sariqqamish yoniga yugurib ketdi:

– Falokat, falokat, – dedi u hovliqib. Sariqqamish esa qomatini egmasdan asta Yantoqqa nazar soldi-da:

– Nima gap, nega buncha shovqin solyapsan, – deb so'radi undan.

– Bobotog' cho'qqisidan Ayoz o'z lashkarlari bilan bostirib kelayotganga o'xshaydi. Zudlik bilan chora ko'rmasak, barchamiz qirilib ketamiz, – dedi Yantoq.

– Rostdanni? – tashvishga tushib qoldi Sariqqamish ham va darhol Yantoqni Ajriqning oldiga yubordi. Ajriq maysalar orasida eng aqllisi edi. Ajriq bir zumda yetib keldi.

– Yantoq, Bo'ztikan, Norshirach, sizlar o'z lashkarlaringiz bilan Yaxmalakka qarshilik ko'rsatasiz. Men ham ularning yo'lini to'sishga harakat qilaman. Sariqqamish esa G'umay bilan eng nozik maysalarni himoya qiladi.

Ajriqning bu taklifi barchaga ma'qul bo'ldi. Ular Ayoz va uning lashkarlariga qarshilik ko'rsatishga o'tlanishdi. Birinchi bo'lib jangga kirgan Yantoq o'z do'stlariga shunday dedi:

– Lashkarlarim! Qarshingizda makkor va ayyor yov turibdi. U maysazorimizga bostirib kirishga urinmoqda. Unga qarshi bor kuchimiz bilan kurashaylik. Nayzalaringizni ishga solib, dushmani parchalab tashlashga tayyormisiz?

Yantoqlar baravariga:

– Tayyormiz! – deyishdi.

Lashkarboshi Yantoq qo'lga
Nayza oldi.
Maysazor-chun kurashmoqda
Yo'lni soldi.
Nayzasida Yaxmalakka
Qildi hujum,
Sumalak-chi asta kulib
Turardi jim.
Ayoz esa savlat to'kib
O'tirardi.
Yonidagi lashkarlari
G'oz, turardi.
O'n kun o'tib Yantoq
Biroz holdan toydi.

Yantoqning nayzasiga osilib olgan sumalaklar uni bukib tashlashdi. Bu holni ko'rib, Ayoz sevinchdan «qah-qah» otib kuldi va yonida turgan Qorbo'ronga shunday buyruq berdi:

– Mana bu yaramasni ildizi bilan qo'porib tashlab, uchirib yubor! Toki boshqa o't-o'lan va maysalarga saboq bo'lsin. Ular Ayoz kimligini va nimalarga qodirligini ko'rib qo'ysinlar.

Buni eshitgan Bo'ztikaning jahli chiqdi. U ninabargli qo'llarini musht qilib turdi-da, Qorbo'rning tumshug'iga bir tushirgan edi, Qorbo'ron uch qadam nariga uchib tushdi. Bo'ztikan Ayozga qarab:

– Hoy, Ayoz! Qani, zo'r bo'lsang, men bilan kurash! Ko'rib qo'y Qorbo'rning ahvolini! – dedi. Ayoz yerda cho'zilib yotgan Qorbo'ronga parvo ham qilmadi. O'ng qo'lini yuqoriga ko'targan edi, yengining ichidan dum-dumaloq Do'l sakrab chiqdi.

– Mana bu maqtanchoqni tilka-pora qilib tashla! – dedi u Do'lga qarab. Do'l bir sakrab Bo'ztikaning barglarini teshmoqchi bo'ldi. Bo'ztikan chaqqonlik bilan g'uj bo'lib ninalarini Do'lga sanchib oldi. Buni kutmagan Do'l «voy-voy»lab Ayozning yoniga chopib keldi. Ayoz Yaxmalakka Bo'ztikan ildizini qurshab olishni buyurdi. Sumalak yugurib kelib, Bo'ztikanga osilib olmoqchi bo'ldi. Bo'ztikan ingichka, oriqli Sumalakning burniga bir chertgan edi, u sinib ketdi. Buni ko'rgan maysalar shodlanishdi.

Biroq, ularning shodligi uzoqqa cho'zilmadi. Yaxmalak Bo'ztikan ildizini o'rab ola boshladi. Shunday bo'lsa-da, Bo'ztikan o'tkir tikanlari bilan Yaxmalakka qarshi mardonavor kurashdi. Jang yetti kecha-yu yetti kunduz davom etdi. Maysalar ham, Ayoz ham jang taqdiri nima bilan tugashini bilishmas edi. Yaxmalak g'irromlik qilib Bo'ztikaning oyoqlarini muzlatib qo'ydi. Bo'ztikan qancha harakat qilmasin, joyidan jilolmay qoldi. Buni ko'rib, Ayoz shodlandi va maysazorga dadil kirib kela boshladi. Maysalar nima qilishni bilmay turganda, Norshirach maydonga chiqdi-da, maysalarga qarab shunday dedi:

Ayozni yengish yo'lin
Juda yaxshi bilaman.
Yantoq bilan Bo'ztikan
Qasosini olaman!
Shunday deya Norshirach,
Jangga kirdi beomon.
Janglarning tarixida
Bunaqasi bo'lmagan.
Yaxmalakka yopishib
Eritdi birin-кетин.
Ayozning boshi qotib,
Topolmas buning sirin.
Shunda daydi Shamolni,
Chaqirdi tez yordamga.
– Shirachni yo'qotgin-da
Yordam bergin bolamga.
Uvlab qoldi-ku Shamol,
Bo'ron boshlandi birdan.
Yopishib Norshirachga,
Ko'chirdi-ku, o'rnidan.

(Davomi bor)



SHIJOAT VA TEZKORLIK BAHSI

Poytaxtimizda o'smirlar o'rtasida Fransiyaning O'zbekistondagi elchisi kubogi uchun I Xalqaro turnir bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Qilichbozlik federatsiyasi va Fransiyaning mamlakatimizdagi elchixonasi hamkorligida o'tkazilgan musobaqada O'zbekiston, Fransiya va Qozog'istondan kelgan oltin nafardan ziyod yosh iqtidor egalari yakka va jamoaviy bellashuvlarda g'oliblik uchun kuch sinashdilar.

Ma'lumki, azal-azaldan otobobolarimiz farzandlarini nafaqat bilimli, yuksak salohiyat egasi bo'lishiga, balki ularni jismonan sog'lom va barkamol shaxs bo'lib kamolga yetishiga ham alohida e'tibor qaratishgan. Ayniqsa, o'g'il bolalarni qilichbozlik bilan shug'ullanishiga alohida shart-sharoit yaratishgan. Bu esa yosh bolalarda

sinchkovlik, tezkorlik, shijoat kabi xislatlarni tarbiyalagan.

Quvonarlisi, bugun qilichbozlik yurtimiz yoshlari orasida eng ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biridir. Buni yosh qilichbozlarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlaridan ham bilish mumkin.

Fransiyaning O'zbekistondagi

elchisi kubogi uchun o'tkazilgan I Xalqaro turnirda ham yosh sportchilarimiz o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini to'la namoyon etib, raqiblariga jiddiy qarshilik ko'rsatishdi. Xususan, qizlar o'rtasida Osiyo chempionati kumush medali sovrindori Gulmira Ziyoyeva finalda fransiyalik Oscan Blyum ustidan zafar quchib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Bronza medalini esa hamyurtimiz Zilola Ilyosova hamda fransiyalik Rozen Kostane qo'lga kiritishdi. O'smirlar o'rtasidagi yakka bahslarida fransiyalik Mishel Koroton va David Spens oltin va kumush medallariga sazovor bo'lishdi. Yana bir iqtidorli qilichbozimiz Renat Bashirov esa uchinchi pog'onani egallab, bronza medali egasiga aylandi.

– Yurtimizda sportga qaratilayotgan e'tibor, biz yoshlarni xalqaro

musobaqalarda ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritishimizga zamin hozirlamoqda. Bundan keyin ham yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, O'zbekiston nomini Osiyo va jahon chempionatlarida munosib himoya qilaman, – deydi turnir sovrindori Zilola Ilyosova.

Jamoaviy bellashuvlarda fransiyalik qilichbozlar o'zlarini har jihatdan to'la namoyon etib, musobaqaning oltin medalini qo'lga kiritishdi. O'zbekiston terma jamoasi esa kumush medal bilan taqdirlandi.

Aziz o'quvchilar, orangizda qilichbozlik sport turiga qiziquvchilar juda ko'p ekaniga aslo shubhamiz yo'q. Shunday ekan, vaqtni qo'ldan boy bermay, qilichbozlik bilan jiddiy shug'ullaning. Siz ham, albatta, chempion bo'lasiz! Biz bunga ishonamiz.

Navro'z NORBOBOYEV

MARHAMAT MOMONING DUOSI

Toshkent viloyatining Bo'zsuvi qishlog'ida istiqomat qiluvchi Marhamat momoning nomini katta-yu kichik hurmat bilan tilga oladi. Yoshi to'qsonni qoralab qolgan bu onaxonning nabirayu abiralarning sanog'iga yetolmaysiz. Lekin momoning Lobarxon ismli nabirasiga mehri bo'lakcha.

Bir kuni onaxon Lobarxonning karate sport to'garagiga qatnayotganini eshitib, biroz ranjidi. «Biz bu yoshda ro'mol chetiga kashta tikar edik. Avlodimizdan hali sportchi chiqmagan», deya uni tanlagan yo'lidan qaytarmoqchi bo'ldi. Lekin Lobarxonning ota-onasi, ustozining bildirgan o'rinli fikrlaridan so'ng onaxon nabirasiga duo berdi.

2009-yili yozda Sirdaryoning Guliston shahrida karate bo'yicha yirik musobaqa tashkil etildi. Shu kuni tong qorong'usida Marhamat buvi hammani uyg'otib, «Meni Gulistonga, nabiramning oldiga olib boringlar. Uning musobaqadagi ishtirokini ko'rmoqchiman», dedi. Karimjon aka uchun onaxonning so'zi qonun... Momo nabirasining turnirdagi ishtirokini, sovrinli o'rinni qo'lga kiritganini ko'rib, rosa sevindi.

Poytaxtimizda o'tkazilgan yana ko'plab yirik musobaqalarda ham sovrindorlar qatoridan joy olgan Lobarxon momosining ishonchini oqlashga astoydil harakat qilyapti.

Muhayyo TO'LAGANOVA

O'g'il-qizlarimizning har bir faslda sevib o'ynaydigan o'yinlari juda ko'p. Ular ma'lum tartib-qoidaga asoslanib o'ynalgani uchun ham qoidali-harakatli o'yinlar deb ataladi. Bugungi sahifamiz orqali yam-yashil maysalar ustida o'ynaladigan bahorgi o'yinlardan biri haqida ma'lumot bermoqchimiz.



Ushbu o'yin bolalarni chaqqonlikka, ephilikka o'rgatish bilan birga, ularda to'g'ri nishonga olish, ya'ni merganlik xususiyatini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, ularda jamoada birlashib, hamjihatlikda o'ynay olish malakalarini o'stiradi.

O'yin uchun kerakli anjomlar: 4-5 ta katta-

kichik toshchalar, koptok, chizish uchun bo'r.

O'yinning borishi: o'yinda 10-12 nafar bolalar ishtirok etishlari mumkin. Qatnashuvchi o'g'il va qiz bolalar 2 guruhga bo'lindilar va har bir jamoaga onaboshi tayinlanadi.

O'rtaga doira, undan 5 metr narida koptok otish uchun joy chizib olinadi.

Doiraning markaziga tanlab olingan 5 ta tosh ustma-ust teriladi. O'yinni qaysi guruh boshlashi kelishib olinadi.

Belgilangan masofadan turib, koptok toshlarga mo'ljallab otiladi. Tegmay qolsa, navbat boshqa guruhga beriladi. Agar dumalatilgan koptok toshlarni tushirib yuborsa,

o'sha toshlarni joyiga qayta terish kerak bo'ladi.

Onaboshi qatnashchilarga koptokni otishi kerak. Koptok tekkan qatnashchi o'yindan chiqib ketadi. Yiqitilgan toshchalar joyiga taxlangach, «jamiy» deb aytiladi. G'olib chiqqan guruhga ochko belgilanadi.

O'yin shu tarzda davom etadi.

Dil OROM tayyorladi

Yurtimizga xush kelding, BAHOR!

Mart oyi boshlanishi bilan yurtimiz janubi – Surxon vohasidan bahor sepinu yoya boshlaydi. Qorlar erib, yomg'irlar mavsumi boshlanadi. Erigan qor va yomg'ir suvlari irmoqlarni to'ldirib daryolar tomon oshiqadi.

Bu faslda tabiat uyg'onadi. Qirlar-u adirlar quyoshning saxiy nurlaridan bahramand bo'lgan yam-yashil mayсалar, boychechaklar, binafsha-yu lolalar bilan bezanadi. Daraxtlar kurtaklab, bog'larda bodom, gilos, o'rik kabi daraxtlar oppoq gulga burkanadi.

Bobodehqon dalasiga otlanadi, yaxshi niyatlar bilan yerga urug' qadaydi.

Bu fasl bayramlari bilan ham go'zal. Onaxonlarimiz, opa-singillarimizning go'zal bayrami hamda Navro'z ayyomi qablarga quvonch ulashadi. Osmonda turnalar arg'amchi soladi. Ayniqsa, bolajonlarimiz bu fasldan o'zgacha zavq olishadi. Varraklari moviy samoni quchadi, bahor o'yinlarini o'ynashadi, qizaloqlarimiz sochlariga sochpopuklar, gulchambarlar taqishadi...

Yurtimizga xush kelding,
BAHOR!



Alisher ASHUROY

AYAMAJIZ KETDI

Hech yodimdan chiqmaydi. Hali ancha yosh paytlarim edi. Bir kuni nonushta mahali otam onamga qarab, «Ayamajiz keldi, shundan o'tib olsak, bir haftaning nari-berisida ekin ekishni ham boshlab yuboramiz», degandilar. O'shanda menga notanish so'z bo'lgan «Ayamajiz» degani Alvastimikan, deb rosa qo'rqqanman.

Qadimda qish paytlari «Ayamajiz», «Hut-yut», «Sariq sumalak», «Hamal», «Belim sindi», «Qoziq yoqar» kabi iboralar ko'p ishlatilgan. Endilikda bu so'zlarning ma'nosini anglay boshlagach, dono ajdodlarimiz zakosiga qoyil qolasan, xo'p topib aytilganiga iqror bo'lasan, kishi. Qadim bu iboralarni sizlarga yana bir bor eslatishni lozim topdik.

Ayamajiz – arabcha so'z bo'lib, ayyom – kunlar, ajiz – kampir ma'nosini bildiradi. Fevral oyi oxirida kelgani uchun qishning qarigani, o'z o'rnini bahorga bo'shatib berayotgan kunlar nazarda tutiladi. Keksalarimiz «Kampir kunlari» ham deyishadi. U mart oyining birinchi haftasi oxirigacha davom etadigan sovuq va izg'irinli kunlar. Shu

bois xalq orasida «Ayamajiz olti kun, qahr aylasa, qattiq kun», «Ayamajiz kirganda to'qson – bir kunimda yo'qsan» kabi naqlar to'qilgan.

«Hut-yut» deb ham qishning oxirgi kunlariga aytiladi. Qishga jamlangan oziq-ovqat zaxirasi tugagan, yerda hayvonlar uchun o't-xashak topilmay qolgan qadim davrlarda jonzotlarning duch kelgan narsani yutib yuborishiga ishora qilingan. «Hamal» esa o'n ikki burjning biri: Hut va Savr burjlari orasida joylashgan. Bahorgi tengkunlik shu belgi bilan boshlanadi. Xalqimizda «Hamal keldi – amal keldi» degan naql bor.

Hozirda qishning eng zaptiga olgan kunlaridan ham, ayamajiz-u hut-yutlaridan ham qo'rqmaymiz. Issiq uylarimiz derazasidan ayozbo-bo o'yinlarini tomosha qilib, zavqlanamiz. Ha, aytganday, «Sariq sumalak», «Belim sindi», «Qoziq yoqar» iboralari haqida buva-buvilaringizdan so'rab ko'ring-chi, ular nimalarni so'zlab berisharkin?

YUSUF og'a



«MO'TABAR ZOT» KROSSVORDI

O) Zanjir holdida:

1. «Suyunchi» filmida ustoz san'atkor Zaynab Sadiyeva ijrosidagi ona obrazi. 2. Buyuk Sohibqiron Amir Temurning onasi. 3. Ip-ipak aralash mato. 4. O'zbek shoirasi, ta'lim-tarbiyaga oid asarlar muallifi.

N) Bo'yiga: 5. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi oqila, hukmdor ayol siyosasi. 6. Atoqli o'zbek shoirasi.

Diagonal bo'yicha: 5. Maqoldan: Ona –daraxt, bola – ...

A) Eniga: 7. Eng ulug' zot. 9. Validalarning azaliy qo'shig'i.

Bo'yiga: 7. Bezatilgan, ziynatlangan ko'rinish. 8. Said Ahmadning «Ufq» romani qahramoni. 9. Xushbo'y pardozi ashyosi. 10. Abdulla Qahhor hikoyasi.

J) Zanjir holdida: 11. Oybekning «Bola Alisher» qissasidagi shoirning onasi. 12. Mumtoz shoira Nodiraning asl ismi.

2	3	1	3	10	6	1	3	*	11	2	7	*	8	2	12	13	1	9	1	,	2	7	9	1	14	4	3	*	6	1	5	6	4	,
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17																		
7	1	8	1	18	*	8	2	18	4	*	17	5	18	5	*	2	19	2	20	4	3	*	10	1	5	6	4	,						

KRIPTOGRAMMA

- Kalit so'zlar:** 1. Atoqli shoir Abdulla Oripov she'ri - 2, 3, 1, 16, 2, 3.
2. O'zbek mumtoz shoirasi - 18, 12, 1, 18, 14, 4, 18.
3. Odatda egizak qizlarning ismlaridan biri - 15, 2, 8, 4, 9, 1.
4. O'zbek ma'rifatparvar shoirasi, tarixiy asarlar muallifi - 6, 4, 13, 7, 2, 6.
5. Zargarlik buyumi, taqinchoq - 4, 14, 4, 5, 20, 1.
6. Maqoldan: Ona bilan bola, 10, 18, 13 bilan lola.
7. Hikmatid: Tabiatning onasi 19, 17, 5, - otasi Quyoshdir.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan mumtoz mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiyning ikki misra hikmatli so'zini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

4-mart 2013



Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashi bo'lgan Xalqaro xayriya Jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Jahongir MUSAYEV, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Zikrilla TESHABOYEV, Quroqboy ERGASHEV, Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir Yusuf ABDULLAYEV
Rassom Feruz MATYOQUBOV
Dizayner Olovuddin ORIPOV
Musahhih Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz
Tel.: 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 90288 Buyurtma N: J 6564